

MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA DUAL TA'LIMNING AHAMIYATI

Rashidova Shahribonu Shodmonbek qizi

Asaka Agrotexnologiyalar texnikumi Maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya

Maqola eng avvalo mamlakatimiz ta'lim tizimiga dual ta'lim tushunchasi yaqin yillarda kirib kelgani va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 29 martdagi qarori bilan professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlangani va UzAuto Motors AJ texnikum va kollejlari bilan hamkorlik dasturini kengaytirayotgani to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: UzAuto , AJ , zavod, Asaka, Motors, ta'lim, dual, tizi, kollej, dualizm, dual ta'lim

Dual ta'lim tizimi – ixtisoslashgan ta'lim turi bo'lib, talaba nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy ko'nikmalarini esa bevosita ish joyida, ya'ni tashkilotda olish imkoniyatini yaratib beradi. Dual ta'limining asosiy maqsadi ta'lim muassasasi va ish beruvchilarning sa'y-harakatlari amaliy mashg'ulotlarning asosiy omili sifatida birlashtirib, talabalarning kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirishdan iborat.

2021-yil 19-yanvar kuni "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetida innovatsion ta'lim tizimi sifatida tan olingan dual ta'lim bilan yaqindan tanishish maqsadida universitet O'quv-ishlab chiqarish markazi (O'ICHM) direktori – Muxamednazarova I.V. tomonidan tashkil etilgan seminar-trening o'tkazildi.

O'ICHM direktorining so'zlariga ko'ra, "Ipak yo'li" universitetida dual ta'limni joriy etish maqsadida quyidagi ishlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda:

- ta'lim muassasasi va korxonalar o'rtasida shartnoma imzolash;
- kadrlar borasida ehtiyojlarni aniqlash;
- kadrlar tayyorlash yo'nalishini tashkil etish;
- mehnat bozoridagi talabga muvofiq o'quv dasturlarini yaratish va ularni doimiy ravishda yangilash;
- dual ta'limda tahsil olgan tayyor kadrlarning malakasini baholash.

Mazkur seminar-treningda dual ta'lim kontsepsiyasi, talabalar va ish beruvchilar uchun uning afzalliklari haqida ham alohida gapirilib o'tildi.

Kasbiy dual ta'limi tizimining kontsepsiyasi o'quv va ishlab chiqarish jarayonlarini birlashtirish orqali mutaxassislarni tayyorlashda amaliy yo'nalishni kuchaytirishga asoslanadi, bu esa o'quv muassasalari bitiruvchilarining kasbiy harakatchanligini sezilarli darajada oshiradi. Dual ta'lim tizimi samarali va moslashuvchan mexanizm bo'lib, turli soha korxonalarini tomonidan bozor

iqtisodiyotining zamonaviy sharoitlarida talab yuqori bo'lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

"UzAuto Motors" AJ zavodida har yili 100 nafardan ortiq talaba ishlab chiqarish amaliyotini o'taydi. Mazkur dastur doirasida Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti qoshidagi Asaka agrotexnologiya texnikumining 17 nafar talabasi ham "UzAuto Motors" zavodida ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlarini o'tashdi. Ularning eng faollari korxonaga ishga qabul qilindi.

Yo'nalishlarimiz nomi Avtomobillarni yigish va sinash. Avtomobillarga texnik xizmat korsatish. Mashinasozlik texnologiyasi. Avtomobillarda tashishni tashkil etish. Paynadlash texnologiyasi. Buxgalteriya xisobi va audit. Kompyuter injineri. Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish. Kutubxonashunoslik yonalishlari

UzAuto Motors AJ korxonaga malakali kadrlarni yanada jalb qilish maqsadida texnikum va kollejlarni bilan yuqori malakali kadrlar tayyorlash borasida hamkorlikni rivojlantirish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni avtomobilsozlik sohasiga keng jalb qilish bo'yicha reja-jadval asosida muntazam ishlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi Asaka agrotexnologiyalar texnikumi bilan ishlab chiqarish va o'quv amaliyotini tashkil etish bo'yicha hamkorlik memorandumini imzolagan.

Unga ko'ra, texnikumning 17 nafar talabalari UzAuto Motors'ning avtozavodi hududida- diplom oldi amaliyotlarini o'tashdi. Amaliyot davrida bitiruvchilar ishlab chiqarish soha mutaxassislaridan malakali ustozlarga birlashtirildi. Amaliyotchilarga mutaxassislikni chuqur egallashda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligi katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib, kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirish, shuningdek amaliyot muddatida ishlab chiqarish asbob-uskunalaridan foydalanish malakasini oshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalar berildi.

Bir necha oy avval Asaka avtozavodi hududida texnikum amaliyotchilarining bitiruv ishi himoyasi bo'lib o'tdi. Talabalar amaliyot davomida o'rgangan ilmiy izlanishlarini korxonaga va texnikum rahbariyati qarshisida himoya qilishdi.

Oliy talim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023/2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish to'g'risidagi taklifiga rozilik beriladi.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi professional talim ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanadi:

- dual ta'lim maqsad va vazifalarini;
- dual ta'limni tashkil etish va uning bosqichlarini;
- dual ta'limni tashkil etish tartibini;
- dual ta'lim ishtirokchilari vazifalari, huquq va majburiyatlarini belgilash.

Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, manfaatdor vazirliklar va idoralar:

a) har yili 1 aprelga qadar:

iqtisodiyot tarmoqlarida tegishli ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ma‘lumotli kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni o‘rganib, Iqtisodiy taraqqiyot vazirligiga takliflarni taqdim etadi;

dual ta‘lim tashkil etiladigan tashkilotlar bo‘yicha Oliy ta‘lim vazirligiga takliflar kiritadi;

b) dual ta‘lim tizimini tashkil etish yuzasidan tegishli chora-tadbirlarni belgilaydi.

- har yili tasdiqlangan chora-tadbirlar asosida talabalarni dual ta‘lim dasturlari asosida o‘qishga jalb etish ishlarini tashkil etadi;

- dual ta‘lim tashkil etiladigan tashkilot va oliy ta‘lim muassasasida ta‘lim jarayonini tashkil etish yuzasidan hamkorlik yo‘lga qo‘yilishini hamda kelishilgan o‘quv rejasi va o‘quv jarayoni jadvali tasdiqlanishini ta‘minlaydi;

- talabalarni belgilangan muddatlarda oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va tegishli tashkilotlarda amaliy mashg‘ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlarini ta‘minlaydi;

- oliy ta‘lim muassasalarida dual ta‘lim jarayoni tashkil etilishi ustidan tizimli nazorat o‘rnatadi.

Oliy talim fan va innovatsiyalar vazirligi har yili 1 mayga qadar tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda dual ta‘lim tashkil etiladigan oliy ta‘lim yo‘nalishlari va muassasalarini belgilaydi.

Dual ta‘lim boyicha professional ta‘lim muassasalariga talabalarni o‘qishga qabul qilish parametrlari Davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirish bo‘yicha davlat komissiyasi tomonidan Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari hamda tizimida oliy ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralarning takliflari asosida tasdiqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jonmatova O. Yusuf Xos Hojibning ta‘lim – tarbiya to‘g‘risida. T.: —O‘qituvchil, 1980. 14-bet
2. Niyozev G, Axmedova.M Pedagogika tarixidan seminar. —Noshirl, Toshkent, 2011, 142 bet
3. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: — Fan va texnologiyal , 2015, 160
4. Mullaboyeva N. Kasbiy pedagogika. Namangan, 2019, 364 bet.